

TURAR JOY HOVLILI UY VA XONADONLARNI TANLASH HAMDA SHAKLLANTIRISH UCHUN ZARUR TALABLAR VA SHAROITLAR

Beknazarova Mahbuba

SamDAQI (2-kurs doktoranti)

Toshboyeva Hurshida Farhod qizi

Termiz muhandislik va texnologiya

Instituti Arxitektura ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy-iqtisodiy sohada rivojlanish jarayonining sezilarli darajada o'sishi ko'zga tashlanmoqda. Respublika aholisining madaniy darajasi va moddiy farovonligining oshishiga qarab uning faolligi, xarid qobiliyati, sport, ko'ngilochar tomoshalar hamda jamoat xizmatiga yo'naltirilgan boshqa muassasalarga talab ham o'sib boradi. Keyingi yillarda respublikamizga xorijlik sayyohlarning kelishi sezilarli darajada o'sganligi kuzatilmoqda. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, ijodiy uchrashuvlarga xorijlik olimlar, ishbilarmonlar, diplomatlarning tashriflari sezilarli darajada faollashdi. Bularning barchasi jamoat manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan binolar, turar joylar, mehmonxonalar, teatrlar, kinoteatrlar, supermarketlar, madaniy-ma'rifiy, sport, savdo markazlarini jadal rivojlantirish uchun obyektiv shart-sharoit yaratmoqda. Shu sababli O'zbekiston hukumati ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishini jadallashtirish va turar joy, jamoat va sanoat binolarini barpo etish, yangi qurilish materiallari va konstruksiyalarga o'sib borayotgan ehtiyojlamini ta'minlash uchun qurilish industriyasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritgan. Ayni paytda yangi qurilayotgan obyektlarni loyihalash va qurilish sifatiga talablar oshib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida turar uy-joylarni loyihalash uchun qo'yiladigan asosiy talablar:

1. O'zbekistonning iqlim sharoitida xonadonni yer sathi va ochiq havo bilan bog'lash an'anaga aylanib qolgan. Shaharlarning tez o'sishi va yer sathini ehtiyot qilish o'rta va ko'p qavatli uylarning qurilishiga olib keldi.
2. Xonadonlarni yer bilan bog'lash an'anasi yo'qoldi. Buning o'rnini almashtirish uchun xonadon tarkibiga har xil yozgi xonalarni loyihalash va uylarda kam qavatli uylarga nisbatan har xil qulayliklar, ya'ni markazlashgan issiq suv, isitish elektr jihozlari va chiqindini olib ketish uchun qulayliklar yaratildi. Shu sabablar natijasida O'zbekiston tabiati, iqlim sharoitini va urf-odatlariga javob beradigan turli xil ko'p qavatli uylarga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi.
3. Yoz paytlaridagi issiq havo va nisbatan yumshoq, qisqa davrli qish xonadonlarni issiq havodan saqlashni taqozo etadi. Bu esa uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish

(oriyentatsiya) qilish, yaxshi shamollatish, konstruksiyalar xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish, quyoshga qarshi qurilmalardan foydalanish orqali erishiladi.

4. Uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish (ya'ni, oriyentatsiya) ma'nosi shundaki, qish paytida xonadonlar quyosh nuridan ko'proq foydalanish, yoz paytida esa xonalarga kamroq quyosh nuri tushishini ta'minlashi zarur. Bunga erishish uchun quyosh tikkadan o'tganligi sababli quyoshga qarshi kichkinagina qurilma, ya'ni (soyabon) derazalami issiq quyosh nuridan saqlaydi. Qishda esa quyosh pastlab nur sochganligi sababli quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri janubga qaratilgan derazaga tushadi. Quyoshni to'g'ridan-to'g'ri tushishi faqat turar uy joylardagi xonalarga zarur, lekin u yordamchi xonalarga: oshxona, dahliz, hojatxonalarga kerak emas, aksincha ular bu xonalarda noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Demak, xonadonlarni ikki tarafga qaratish kerak: asosiy xonalar janub tomonga joylashtirilsa, yordamchi xonalar shimol tomonga joylashtirilishi kerak.

Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning asosiy mezonlari mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydigan yuqori darajadagi komfortlilik, kapital va foydalanish xarajatlarining pasayishiga va ulaming arxitekturaviy-badiiy tavsiflarining yuqori darajada bolishiga ko'maklashuvchi tejamkorlik hisoblanadi. Turar joy va jamoat binolarining bar bir turi o'ziga xos hajmiy-rejaviy yechimga ega, ularni loyihalash o'zida juda murakkab ish jarayonini aks ettiradi. Shuning uchun turar joy va jamoat binolari loyahasini ishlab chiqishga katta tajribaga ega bo'lgan, ularni tashqi tabiiy iqlim sharoitlari va ichki murakkab funksional-texnologik jarayonlaming ta'siri ostida vujudga keladigan arxitekturaviy-rejaviy yechimlarini shakllantirish xususiyatlarini biladigan yuqori malakali arxitektorlar jalb qilinadi

Respublikamizning shaharlari, viloyat va tumanlarining aholisining tarkibi, ya'ni aholining yoshi, oila tarkibi: erkak, ayol va bolalaming tarkibi va boshqa shunga o'xshash omillar e'tiborga olinishi lozim. Bu esa butun mamlakatimizda aholi ro'yxati o'tkazilganidan so'ng aniqlanadi. Turar joy va xonadonlarni tanlashda, albatta hisobga olinishi kerak bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

— aholining demografik tarkibi; — oila a'zolarining urf-odatlar va hunari, ya'ni qanaqa ish bilan mashg'ul bo'lishlari;

— qurilish joyi; — qurilish joyining tabiiy iqlim sharoiti;

— texnika-qurilish bazasining ahvoli va sharoiti. Har bir shahar, viloyat, tuman va qishloq uchun uy-joy tanlashda ularda yashaydigan aholining demografik tarkibiga qarab har-xil sonli nisbatlari olinadi. Respublikamiz aholisining demografik tarkibi, albatta boshqa davlatlar ko'rsatkichidan o'zgaradi. Ayniqsa bu ko'rsatkich Boltiq bo'yi davlatlari va Belorussiyadagidan katta farq qiladi. o'zbekistonda bir yillik aholining o'sishi 3% ni tashkil etadi. Boshqa qo'shni davlatlar ko'rsatkichiga nisbatan bizning respublikamizda ko'p bolali oilalar ancha ko'proqdir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p xonali xonadonlarning nisbiy foizini oshirishga olib keladi. Ko'p bolali oilalar, ayniqsa, qishloq aholisiga mansubdir. Turar joyni tiklashda aholining qaysi hunar bilan

marshg'ul bo'lishi ham eng asosiy omillardan biridir. Shuning uchun qishloqda ko'p qavatli uylar shaxsiy tomorqali hovlilari uy bilan qulay bog'langan bo'lishi kerak. Bundan tashqari qishloq turar joyining tarkibida yordamchi xonalar, molxonalar, tovuqxona, qo'yxona, somonxonalar hamda qishloq xo'jaligi uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar saqlaydigan xonalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlaydigan omborxonalar bo'lishi kerak. Ilm-fan va san'at ahllari uchun qo'shimcha xonalar qurilishi xonadon tarkibini va tarxini belgilashda hisobga olinishi kerak bo'lgan shart-sharoit hisoblanadi. Xalqning urf-odatlarini ham xonadon tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbek xalqining eng asosiy urf-odatlaridan biri bu ochiq havoda ko'proq vaqtni o'tkazishdir. Bu odat mamlakatimizning tabiati, iqlim-sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, xonadon tarkibiga ochiq yozgi xonalar ayvonlar va supalami kiritishni taqozo etadi. Bu yerda aholi mehmon kutadi, dam oladi va uxlaydi. Uyning turini tanlashga uning qayerda joylashgani ham ta'sir qiladi. Uyning joylashgan joyiga qarab uy shahardami, qishloqdami, shahar markazidami yoki chetdami shunga qarab har-xil talablar paydo bo'ladi, undan tashqari yeming past-balandligi, uyni o'rab turgan tabiat, iqlim sharoiti, tuproq tarkibi va seysmik holatlari ham uy turini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bu narsaga tabiiy iqlim sharoiti katta ta'sir qiladi. Shimol va janubda quriladigan uylar bir-biridan o'ta farq qiladi, undan tashqari nam va quruq iqlim, tog' yoki pastliklar sahro va nam yerlarning ta'siri ham turar joy me'morchiligiga katta ta'sir o'tkazadi. O'zbekiston tog'lardan, sahrolardan, tekislik va pasttekisliklardan, ko'kalamzor, lalmikor yerlardan tashkil topgan. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida hamma yerga bir xil turar joylarni loyihalashtirish va qurish katta xatoliklarga olib kelishi mumkin. Respublikamiz ilmiy tekshirish institutlari tomonidan tabiati, iqlim sharoiti, yer qimirlashi hisobga olingan xaritalar ishlab chiqilgan. Shu xaritalarga qarab qurilish mutaxassislari uylarning turlarini tanlaydilar, undan foydalanadilar va quradilar. Uylarni tanlash va qurishga qanaqa qurilish ashyolarining borligi, qurilish-texnik jihozlari va asboblarning ahvoli ham ta'sir etadi. Lekin bu narsalar o'zgaruvchan bo'lib, umumiy texnik-iqtisodiy o'zgarishlarga, fan va texnikaning o'zgarishiga ham bog'liqdir. Shuning uchun loyihalovchi me'morning oldiga qo'yiladigan vazifa bu - hamma shart-sharoitlarni to'la o'rganib chiqib, keyin eng qulay va chiroyli turar joylarni loyihalashdan iborat bo'lib, ayniqsa, yeming shart-sharoiti jiddiy e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
2. M.M. Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
3. P.Sh. Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996
4. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009